

RAQAMLI INSON KAPITALI KONSEPSIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xudoyorova Zebuniso, NamDU ilmiy izlanuvchisi

Annotatsiya. Inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish, uning ijodiy fazilatlari va qobiliyatlari, inson kapitaliga sarmoya kiritish masalasi dunyo fanining asosiy va markaziy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada raqamlashgan olamda inson kapitalini rivojlantirish, "raqamli inson kapitali" konsepsiyasining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: inson, kapital, inson kapitali, jamiyat, raqamli, raqamlashtirish, taraqqiyot, konsepsiya, ijodiy faoliyat, tafakkur, o'zgarish.

ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПЦИИ ЦИФРОВОГО ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА

Худоёрова Зебунисо, научный сотрудник НамГУ

Аннотация. Вопрос формирования и развития человеческого капитала, его творческих качеств и способностей, инвестиций в человеческий капитал остается одной из основных и центральных проблем мировой науки. В данной статье раскрывается развитие человеческого капитала в цифровом мире, особенности концепции «цифрового человеческого капитала».

Ключевые слова: человек, капитал, человеческий капитал, общество, цифровой, цифровизация, развитие, концепция, творческая деятельность, мышление, изменение.

FEATURES OF THE CONCEPT OF DIGITAL HUMAN CAPITAL

Khudoyorova Zebuniso, research fellow at NamSU

Abstract. The issue of formation and development of human capital, its creative qualities and abilities, investments in human capital remains one of the main and central problems of world science. This article reveals the development of human capital in the digital world, features of the concept of "digital human capital".

Keywords: person, capital, human capital, society, digital, digitalization, development, concept, creative activity, thinking, change.

Dunyoda inson kapitali muammosi har bir davlatning taqdirini belgilaydigan, zamonaviy dunyo taraqqiyotining dinamikasi, insonning innovatsion, ijodiy faoliyati, fan, texnika va texnologiyalarning rivojlanishini belgilovchi omil sifatida dolzarblik kasb etmoqda. BMTning Taraqqiyot dasturi, Inson kapitali indeksi, Jahon bankining «Inson kapitalini rivojlantirish» loyihasi ham inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bugungi global axborot makonida uni bevosita eng afzal va eng qimmatli resursga aylantirmoqda. Shu bilan birga, bugun butun dunyo inson kapitalini raqamlashtirishga o'tish bosqichida.

Mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirishda «davlat – inson uchun» tamoyili asosida ishlash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda

keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, «adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitalini rivojlantirish» [1] olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Bugun biz raqamli dunyoning boshqa sivilizatsiyasi va natijada raqamli jamiyat bilan tanishtiradigan davrdamiz. Bu insoniyat rivojlanishining yangi ijtimoiy-madaniy holatini shakllantiradi va raqamli jamiyatning o‘zini tushunish va undagi shaxsning shakllanishi bilan bog‘liq yangi savollarni tug‘diradi. Hozirgi vaqtda raqamli jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish va u tomonidan belgilab qo‘yilgan ta’limdagi burilish nuqtalarini tushunish muhim ahamiyatga ega.

Ma’lumki, rivojlangan davlatlarda inson kapitali asosiy boylik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mezonini hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ham, inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish, uning ijodiy fazilatlarini va qobiliyatlari, inson kapitaliga sarmoya kiritish masalasi dunyo fanining asosiy va markaziy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu esa inson kapitalining mamlakatni barqaror rivojlanishidagi ahamiyatiga doir tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Raqamlashtirish insoniyatning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik hayot tarziga ta’sir qiladi, uning standart atributlarini o‘zgartirmoqda. Raqamli jarayonning asosiy moderatori o‘zining intellektual kapitalini modernizatsiya qiluvchi va takomillashtiruvchi shaxsdir. Shu ma’noda inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni bilan bog‘liq uning namoyon bo‘lish xususiyatlari, uni shakllantirish va rivojlantirish omillari, mezon hamda mexanizmlarini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Aytish mumkinki, bugungi kunda raqamli jamiyatning quyidagi xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘lmoqda: eng murakkab raqamli texnologiyalar va uskunalarga talab; kibermakonda sotsializatsiyaning muhim qismini amalga oshirish; raqamli sivilizatsiyaning zamonaviy vositalaridan foydalangan holda ongni qurish; axborotni uzatuvchi subyektning o‘zgarishi. Shu o‘rinda “insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida vujudga kelayotgan raqamli jamiyat va kelajak avlodni hayotga tayyorlash uchun mo‘ljallangan raqamli ta’lim” [3, 30], raqamli jamiyatning asosiy xususiyatlari, ular olib keladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni ham e’tiborga olish zarurdir.

Raqamli jamiyatning asosiy xususiyatlariga texnologiya va jihozlardan foydalanish; ijtimoiy tarmoqlarda shaxslararo muloqotning mavjudligi; madaniyatga kirishning zamonaviy vositasi sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanish; ta’lim subyektlarining rolini o‘zgartirish kabilarni kiritish mumkin.

Raqamli inson kapitali (RIK) konsepsiyasi raqamli muhitda olingan bilim, ko‘nikma va tajriba jismoniy shaxslar va tashkilotlarning mahsuldorligini, innovatsiyalarini va raqobatbardoshligini oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan qimmatli aktivlar ekanligini ko‘rsatadi. Bu shuni anglatadiki, raqamli savodxonlikka ega, ma’lumotlar uzatish ko‘nikmalariga ega, raqamli

texnologiyalardan foydalana oladigan va tez o'zgaruvchan raqamli muhitga moslasha oladigan odamlar zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat kalitidir.

Bir qator tadqiqotchilar raqamli inson kapitali nazariyasi uchun asos sifatida inson kapitali va bilimlar iqtisodiyotining kombinatsiyalangan tushunchalaridan foydalanishni taklif qilmoqdalar. Rivojlanayotgan raqamli inson kapitali konsepsiyasi raqamli tengsizlikni bartaraf etish va ijobiy ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun Internetdan foydalanishga qaratilgan. Ushbu yondashuv tarafdorlari (A. Bax, G. Shaffer, T. Volfson) o'quvchilarning shakllantiriladigan malakalari sifatida to'rtta "natija"ni taklif qiladilar: fuqarolik faolligi (Civic engagement), siyosatga ta'siri (Influence on policy), ijtimoiy o'zgarishlar (Social change) va iqtisodiy taraqqiyot (Economic advancement) [5]. Albatta, ma'lum darajada ushbu yondashuvga qo'shilish hamda raqamli savodxonlik va axborot texnologiyalarini o'rgatish bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda raqamli inson kapitali konsepsiyasini qo'llash mumkin.

Raqamli inson kapitalining ushbu konsepsiyasi ta'limni shaxsning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirining faol ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasini shakllantirish kontekstida ko'rib chiqadi. Uning mualliflariga ko'ra, aynan shunday yo'l bilan World Wide Web samarali vosita va shaxslar va jamoalar uchun qayta aloqa kanali bo'lib, u qaysidir ma'noda hukumat tashabbuslarini to'ldiradi va qaysidir ma'noda unga qarshi chiqadi. "Raqamli inson kapitali" konsepsiyasi doirasida zamonaviy jamiyatda professional faoliyatni belgilovchi raqamli ko'nikmalarni shakllantirish zarur, ammo yetarli shart emas.

Darhaqiqat, raqamli davr insondan o'rtacha professionaldan yuqori darajadagi texnologik ma'lumotga ega bo'lishni talab qiladi. Shu bilan birga "inson kapitali nafaqat moddiy - moddiy shaklni, balki bugungi kunda intellektual mehnat va u tomonidan yaratilgan kiber mahsulotlarda ifodalangan nomoddiy shaklni ham tashkil qiladi"[2].

"Raqamli inson kapitali" konsepsiyasini ilgari surishda raqamli savodxonlik tushunchasiga ham e'tibor berish lozim. Chunki "raqamli savodxonlik – zamonaviy jamiyat o'zining barcha texnologiyalari bilan taqdim etayotgan imkoniyatlardan foydalanish, odamlar bilan yangi ijtimoiy formatda muloqot qilish, bir-biriga nisbatan odobli va e'tiborli bo'lish qobiliyatidir" [4, 7]. Bu yerda insoniy munosabatlar, internetda muloqot qilish etikasi, real hayotdan qisman raqamlashtirilgan yoki virtual muloqot jarayonida hosil qilingan muloqotning muayyan qoidalari birinchi o'ringa chiqadi.

Raqamli savodxonlikni o'rgatishda ijtimoiy-siyosiy yondashuvni qo'llash muhimroq deb tan olingan. Ushbu konsepsiya kompyuter ta'limini fuqarolarning fuqarolik va jamoat hayotida faol ishtirokini rag'batlantiradigan kengroq ijtimoiy kontekstda belgilaganligi sababli, u kasbiy ko'nikmalarni egallashga asoslangan kompyuter ta'limiga tor yondashuvdan sezilarli darajada farq qiladi.

Koulmanning fikricha, raqamli inson kapitali ijtimoiy kapitalning asosiy elementlarini o'z ichiga oladi [6]. U ijtimoiy kapitalni ijtimoiy tuzilmalarning

ayrim jihatlaridan tashkil topgan va subyektlarga ushbu tuzilmalar doirasida "mahsulli" harakat qilish imkonini beruvchi har qanday obyekt sifatida tavsiflaydi [6, 100]. Koulman samarali harakatga misol sifatida janubiy koreyalik talabalar faollari tomonidan yaratilgan "o'quv to'garaklari"ni keltiradi. Ushbu to'garaklar ishtirokchilari "ko'rinmas", chunki barcha uchrashuvlar onlayn tarzda o'tkaziladi, begonalar kirishi mumkin emas. Koulmanning ta'kidlashicha, o'quv to'garaklarining o'zlari ijtimoiy kapitalning bir shakli bo'lgan, chunki ular o'zgacha fikr noqonuniy bo'lgan jamiyatda siyosiy muxolifatni tashkil etishga hissa qo'shgan. Ekspertning fikricha, ijtimoiy kapital norasmiy jamoalar ishtirokchilarining ijtimoiy tarmoqlardagi aloqalari natijasida yaratiladi va rivojlanadi.

A.Baxning "raqamli inson kapitali" tushunchasiga oid konsepsiyasidan farqli ravishda Coleman raqamli inson kapitali tuzilishini uning funksiyalari bo'yicha aniqlashni taklif qiladi. Birinchidan, raqamli inson kapitali raqamli texnologik ko'nikmalarni egallash va tegishli funksional qo'llash orqali shakllanadi. Ikkinchidan, uning funksionalligi progressiv ijtimoiy o'zgarishlarga olib keladigan fuqarolik ishtirokini o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, A. Baxning raqamli inson kapitali konsepsiyasiga ma'lum cheklovlarni kiritish va ijobiy ijtimoiy o'zgarishlar natijalarini va raqamli inson kapitalidan foydalanishning ijtimoiy muammolarning keskinlashishi va siyosiy xavflarning o'sishi bilan bog'liq oqibatlarini ajratish arziydi.

Bu yondashuv mashhur tadbirkorlar va innovatorlar tomonidan ham qo'llaniladi. Shunday qilib, Ilon Mask ta'kidlaydi: "Twitter - bu insoniyat kelajagi uchun muhim mavzular muhokama qilinadigan raqamli makon. Twitter ulkan salohiyatga ega va men uni qulfdan chiqarish uchun kompaniya va foydalanuvchilar hamjamiyati bilan ishlashni boshlashni kuta olmayman"[7].

T. Galadning inson kapitali nazariyasining "falsafiy tanqidi" qoidalarini hisobga oladi [8]. Ta'imning, jumladan raqamli ta'limning strategik maqsadi individual farovonlikning o'sishi bo'lsa-da, bu boylik jamoat mulkini ko'paytirish, ijtimoiy bir xillik va hamkorlikni mustahkamlash uchun ishlatilishi kerak. T. Galadning butun jamiyatga foyda keltirmaydigan shaxs hayotini yaxshilash uchun AKTdan foydalanish orqali potensial xususiy tovarlarni ko'paytirish maqsadi haqidagi tanqidiga qo'shilmaslik qiyin. Raqamli savodxonlikni o'rgatish bo'yicha ta'lim tashabbuslari progressiv ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni rag'batlantirish uchun olingan kompetensiyalardan foydalanish ko'nikmalarini ta'minlashi kerak.

Umuman olganda, raqamli inson kapitali konsepsiyasi raqamli transformatsiya davrida asosiy muvaffaqiyat omilidir. Raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani yaratish va tegishli madaniyatni shakllantirishga investitsiyalar ham jismoniy shaxslarning ham, umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va yangi O'zbekiston. – Toshkent: «O'zbekiston», 2024. – b.
2. Амирханова П.М. Человеческий капитал в эпоху цифровизации // Вестник науки. 2021. №3 (36). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/chelovecheskiy-kapital-v-epohu-tsifrovizatsii> (дата обращения: 24.06.2025).
3. Кригер Е.Э. Характеристики цифрового общества и принципы образования в нем // Вестник РГГУ. Серия «Психология. Педагогика. Образование». 2018. №4 (14). С. 29–39.
4. Кузьмина М.В. Формирование цифровой грамотности обучающихся: методические рекомендации для работников образования в рамках реализации Федерального проекта «Цифровая образовательная среда». - Киров: ИПО Кировской области, 2019. с.7
5. Bach A., Shaffer G., Wolfson T. (2013). Digital human capital: developing a framework for understanding the economic impact of digital exclusion in low-income communities // Journal of Information Policy. № 3. Pp. 247-266.
6. Coleman J.S. (1994). Social capital in the creation of human capital // The American Journal of Sociology. Vol. 94. Pp. 95-120.
7. DTF. Илон Маск купит Twitter за 44 миллиарда долларов. Режим доступа: <https://dtf.ru/life/1174138-ilon-mask-kupit-twitter-za-44-milliarda-dollarov> (дата обращения: 25.02.2023).
8. Gilead T. (2009). Human capital, education and the promotion of social cooperation: a philosophical critique // Studies in Philosophy and Education. Vol. 28, no. 6. Pp. 555-567. DOI <http://dx.doi.org/10.1007/s11217-009-9146-2>
9. Gulamzhanovna, G.G. (2024). The Need for Creativity in the Development of Human Capital. Miasto Przyszłości, 52, 685–690. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4698>
10. Гаффарова, Г. (2023). Молодежного Сознания В Цифровом Обществе. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 13-17. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/HCBVN>
11. F.Ibrokhimov. Philosophy Education as a Scientific-Pedagogical Problem. Miasto Przyszłości 54, 1276-1280
12. Ibroximov F.A. Talabalarda tahliliy tafakkurni shakllantirish zaruriyati. FarDU Ilmiy Axborotnoma 6 (6), 374-378
13. Yo'ldashev A. (2024) Sun'iy intellektning sohalararo aloqadorligi. NamDU Ilmiy Axborotnomasi, №11, 408-412.
14. Berkinov O.T. / Kibermakonda yoshlar ma'naviy hayoti. / Monografiya. - Chirchiq: «Zebo prints», 2023. – 62 bet.